

KLON FENOMENINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI

Sultonova Nilufar Narzullayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Qarshi davlat universiteti

sultonovanilufar14@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Boqiy darbadar” romanida klon odamlar obrazining badiiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asarda klonlash g'oyasi orqali inson shaxsi, uning identifikatsiyasi, ruhiy olami hamda texnologik taraqqiyotning ma'naviy oqibatlari yoritiladi. Klon odamlar obrazi ilmiy-fantastik tasavvur doirasidan chiqib, ramziy va estetik mazmun kasb etadi. Maqolada ushbu obrazning inson mohiyatini anglashdagi o'rni, shuningdek, jamiyat va kelajak haqidagi konseptual qarashlarni ifodalashdagi funksiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: klon odamlar, ilmiy-fantastika, postmodernizm, identiklik, inson mohiyati.

Zamonaviy o'zbek nasrida inson, jamiyat va texnologiya munosabatlarini badiiy-falsafiy jihatdan talqin qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ilmiy-fantastik va postmodern yo'nalishdagi asarlarda insoniyat kelajagi, shaxs identifikatsiyasi hamda sun'iy mavjudotlar muammosi markaziy o'ringa chiqmoqda. Shu jihatdan “Boqiy darbadar” romanida klon odamlar obrazining kiritilishi adabiy jarayonda yangi estetik va falsafiy izlanishlar mavjudligini ko'rsatadi. Klon odamlar obrazi nafaqat ilmiy-fantastik tasavvur mahsuli, balki inson mohiyati, uning ruhiyati va ijtimoiy maqomi haqidagi chuqur falsafiy savollarni ham o'rta qo'yadi. Asarda inson va uning nusxasi o'rtasidagi chegara, shaxsning o'zligini anglash muammosi hamda texnologik taraqqiyotning ma'naviy oqibatlari badiiy ifoda etiladi. Bu esa romanning zamonaviy adabiyotdagi o'rnini yanada dolzarblashtiradi. Mazkur maqolada klon odamlar obrazining badiiy-falsafiy mohiyati, ularning asardagi ramziy vazifasi hamda insoniyat kelajagi haqidagi konseptual qarashlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Klon-odam bir qarashda odamzot havas qilsa arzigudek fazilatlar egasi:

1. “Bu genomning DNK halqalarida avstraliya kaltakesagining genlari mavjud, favqulodda regeneratsiya qobiliyati ana shu genlarning boisidir”.

2. “Boshqa halqada siz Osiyo cho'llarida goh-goh paydo bo'lib turuvchi ulkan toshbaqa genlarini ko'rasiz, kaltakesak genlari bilan chatishgani bois ular ham o'zlarini yangilash xususiyatiga ega – yangilanib turadigan DNK halqalari bu odamning barhayotligini ta'minlovchi asosiy omildir”.

3. “Gap shundaki, barhayot odam anjuman boshlanganidan bir necha kun avval tajribaxonamizning beton devorlaridan va qo'riqlash qurilmalaridan



bemalol o'tib ozodlikka chiqib ketgan”

4. “Xameleon genlari unga tana tuzilishi va ko'rinishini o'zgartirish xususiyatlarini ato etgan – fazoviy qurilmalarning kuchli kameralari uni sahrodan izlab topa olmadi, infraqizil “ko'zlar” ham ko'ra olmadi”⁷⁷.

Gen muhandisi ma'ruzasida aks etgan bu ma'lumotlardan klon-odamning insoniyat bir umr orzulagan, hatto ertak va dostonlarida kuylagan xususiyatlari namoyon bo'lgan. Klon-odam jarohatlansa o'zini qayta tiklaydi, barhayot, hech qanday devor unga pisand emas, u xohlagan qiyofa va tusga kira oladi.

Qizig'i shundaki, shu bo'lishida ham u odam emas. Odamga havas qiladi. Kimligi-yu qayerdan kelib qolgani, nima maqsadda yaratilganini bilish uning uchun ulkan armon. Roman kompozitsiyasi mana shu uchta syujet liniyasini umumlashtirish, yozuvchining Boqiy Darbadar haqidagi yirik falsafasini badiiy ifodalashga qaratilgan. Boshqacharoq aytganda, Boqiy darbadar falsafasi roman markazidan turli syujet liniyalarini biriktiruvchi qizil ip bo'lib o'tgan. Kompozitsiyaning asosi – fikr tashlash (tezis), unga boshqa bir fikrni qarshi qo'yish (antitezis) va xulosaga olib kelish (sintez)dan iborat mazmuniy tizimi ham muallifning Boqiy Darbadar degan badiiy-falsafiy umumlashmasidan kelib chiqqan. Asar mohiyatiga yovuzlik, ezgulik kurashining pirovard-oqibati Xudoga qaytish degan badiiy g'oya-konsepsiya qo'yilgan.

Roman syujeti uchta badiiy zamonni qamrab olgan. O'tmish zamon, bugun va kelajak zamon. Asardagi Muborak kishi turg'un o'tmish zamoniga tegishli obraz. Professor Ziyo bugungi-hozirgi zamonga mansub. Klon-odam kelasi zamonni ifodalab keladi. Bularning hammasini umumlashtirib, yagona “Boqiy darbadar” romani vaqtiga bog'lab turuvchi esa hamma zamonlarda hoziru nozir, bebaxt va qarg'algan Etikdo'z obrazidir. Muallif mana shu Etikdo'z obrazi vositasida barcha zamonlar osha to'siqsiz sayr qila oladi. Bobil, shahri Haybar, Bog'i Eram, Arabiston, Yaponiya, Xitoy, Amerika, Yevropa va Gobi sahrosiga o'xshash xususiy badiiy makonlarni birlashtirib turish imkonini yozuvchiga taqdim qilgan obraz ham Etikdo'z obrazidir.

Romanning uch qism va har bir qismda qator sarlavhalangan kichik epizodlardan iborat qilib kompozitsiyalashtirilishi uning yangiligi, badiiy modifikatsiyalashuvidagi muvaffaqiyatini ta'min qilgan asosiy omillardir.

Romanning birinchi qismi “Ibtido”, “Hazratning bashorati”, “Duoyibad”, “Badaviylar”, “Sahrodagi karvon”, “Tiyonshon bag'ridagi g'orda istiqomat qiluvchi avliyo” tarzida sarlavhalangan oltita epizoddan iborat. Bu qism asosan o'tmish zamoniga tegishli bo'lib, unda Misr, Arabiston, Osiyo sahrolari, Tyonshon kabi bir-biridan uzoq makonlarda paydo bo'lgan o'tmish rivoyatlari mahorat bilan gibridlashtirilgan. O'quvchi bu voqealarning qaysi zamon yoki

⁷⁷ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – Toshkent: G'ulom. 2011.-B. 36-40.



makonda sodir bo'lgani bilan hatto qiziqmaydi ham. Xuddi bir zamon-u bir makonda sodir bo'lgan yagona voqeadek qabul qilaveradi. Buning sababi yozuvchining badiiy mahorati bo'lishi bilan birgalikda, u to'g'ri tanlagan abadiy darbadarlikka mahkum odam obrazi hamdir.

Romaning ikkinchi qismi "BOENG 787 DREAMLINER. Yo'nalish: Amerika – Markaziy Osiyo", "Xalqaro Anjuman", "Murojaat", "Osiyo. F-22 "Raptor" harbiy uchoqlari", "BOENG 787 DREAMLINER. Professor Ziyo", "Avlod", "Timsollar charxpalagi", "Bobo Toshbaqa maqbarasi. Hijratning 190-yili", "Shahri Haybar", "Mening shahri Haybarim" kitobining so'nggi boblaridan parcha", "Luvr. Milodiy 1312 yil. "Mangu darbadarning qaytishi" pyesasi premyerasi" nomli o'n bir bo'limdan tashkil topgan. Roman bo'limlari ichida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan bu qismda asosan hozirgi zamon konsepsiyasi yetakchilik qilsa-da, yozuvchi unga ba'zi kursivga olingan epizod parchalari, alohida sarlavhalangan bo'limchalarni badiiy montajlash orqali ("Bobo Toshbaqa maqbarasi. Hijratning 190-yili", "Shahri Haybar", "Mening shahri Haybarim" kitobining so'nggi boblaridan parcha", "Luvr. Milodiy 1312 yil. "Mangu darbadarning qaytishi" pyesasi premyerasi" kabi) uzoq va yaqin o'tmish zamonini ham muvaffaqiyatli tarzda kiritishga erishadi. Shuningdek, zamonaviy aviolayner, unda o'rnatilgan zamonaviy uskunalar, ko'rsatilgan video yozuvlar, internet xabarlar o'quvchining kelajak haqidagi tasavvurlarini boyitib turadi. Shu tariqa yozuvchi ikkinchi qismda o'tmish, bugun va kelajak zamonini jamlaydi.

"Boqiy darbadar" romani kompozitsiyasining uchinchi qismi "BOENG 787 DREAMLINER. Bo'rondan yarim soat avval", "Mutafakkirning vido maktubi", "Bo'rondan o'n besh daqiqa avval", "BOENG 787 DREAMLINER. Bo'rondan o'n daqiqa avval", "Mezonul-avzon", "Bo'ron" shaklida sarlavhalangan olti bo'lim-epizodni o'z ichiga oladi. Ko'rinib turibdiki, bu qism yarim soatlik zamon voqeligini tasvirlashga qaratilgan. Shuningdek, bu qism voqealari markazida dunyoni ostin-ustun qilgan global bo'ron hodisasi turadi.

Ushbu epizodlar tizmasida, asosan, ikki qahramon haqida gap ketadi. Biri professor Ziyo, ikkinchisi jahondagi harbiy birlashmalar tomonidan o'limga hukm qilingan klon-odam obrazlari. Bu qismda ham ikkinchi qismdagidek ikki zamon uyg'unlashtirilib tasvirlanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari orqali joriy zamon, professor Ziyo assotsiativ xayollari orqali o'tmish zamon.

Yozuvchi "BOENG 787 DREAMLINER. Bo'rondan yarim soat avval" deb sarlavha qo'yilgan epizodda Reyter axborot agentligining internet saytida berilgan axborotlarni roman voqealariga postmodernistik usulda payvandlaydi. Bundan o'quvchi yangi asr dunyosida jahonda ro'y bergan, hatto real hayotda ham axborot sifatida mavjud bo'lgan o'n uchta global axborot bilan tanishadi. Yozuvchining mahorati shundaki, internet uslubida berilgan turli axborotlarni professor Ziyo nigohida o'qitishi bilan ularni romanning markaziy voqealari,



badiiy-falsafiy konsepsiyasiga bog'lay oladi. Masalan: "...dunyoning turli mintaqalarida sohillar kengayib bormoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Sahroi Kabir keyingi o'n yil ichida o'ttiz kilometrga kengaygan..."; "...Misrda qoyalarni yo'nib ishlangan uylardan topilgan anjomlar u yerda yashagan kishilarning, darhaqiqat, bahaybat gavdali, kuchli kishilar bo'lganini tasdiqladi. Rivoyatlarga ko'ra, ularni kuchli shamol halok qilgan..."; "...butunjahon Ovchilar Jamiyati barcha ovchilarni Xitoydan kelgan qora chumchuqlarni qirib tashlashga chaqirdi... Oddiy va odatiy sarg'ish chumchuqlardan farq qilib, ular na don-dun terishadi, na sayrashadi, qop-qora ko'zlarini jovdiratgancha nimanidir sabr-toqat bilan kutishadi..."; "...Yer yuzida eng sho'r dengiz – Qizil dengizning Arabiston yarim oroli sohillariga yaqin yerida, suv ostida chuchuk suvli ulkan buloqlar borligi aniqlandi. Bundan ikki ming yil avval paydo bo'lgani taxmin qilinayotgan mazkur buloqlarning suvi g'oyat toza va shifobaxsh bo'lib, dengizning sho'r suviga aralashib ketmasdan to sohilga qadar oqib boradi..."⁷⁸ (Barcha kursivlar muallifga tegishli) va h.k. Ko'rinib turibdiki, bu internet axborotlari qaysidir ko'rinmas rishtalar orqali roman voqealariga bog'lanadi, yozuvchi badiiy g'oyasini yorqinroq ochishga xizmat qiladi. Sahroi Kabirga oid axborot global halokat haqidagi tadqiqotlardan, Misrga oid axborot Od qavmi haqidagi Qur'oniy haqiqatdan, qora chumchuqlar haqidagi axborot romanning boshida Etikdo'z munosabati bilan tasvirlangan "Yevangliya" matnidani, Qizil dengizga tegishli axborot Qur'ondagi Allohning sho'r va chuchuk suv o'rtasiga ko'rinmas parda tortib qo'ygani haqidagi keyinchalik kapitan Kusto kashf etgan oyat haqiqatidan olingan. Bir qarashda quruq axborotdek bo'lib tuyuladigan ushbu payvandlangan jajji epizodlar romandagi kompozitsiya mazmunining ezgulik va yovuzlik haqidagi falsafasi bilan izchil bog'lanib ketadi.

Uchinchi qismdagi "Mezonul-avzon" deb sarlavhalangan bo'lim romanni o'zbek xalqining mumtoz o'tmishi bilan bog'lashi jihatidan xarakterlidir. Bunda professor Ziyo ulug' o'zbek shoirlari Navoiy va Mashrabni eslaydi. Bo'ron, o'lim talvasasi oldidan yashagan hayotining falsafiy mohiyatini ularning g'azallari orqali yechimini topishga urinadi. Bunda ham yozuvchi X.Borxesga xos postmodernistik payvandlash usulini qo'llaydi. YA'ni Navoiy va Mashrab g'azallaridan iborat mumtoz matnni roman kompozitsiyasiga singdirib yuboradi.

Yo Rab, ushbu turfa sho'xi dildirib,

Kim oning vaslin manga qilding nasib... deb boshlanuvchi Mashrab g'azalining roman mazmuni bilan bog'liq shunday sharhini beradi:

"Yo Rab, bu zarbulmasalning turli sho'x va dilga firib beruvchi ma'nolari vaslini menga nasib aylading". Zarbulmasalning ma'nosi inson ruhining abadiy

⁷⁸Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – Toshkent: G'. G'ulom. 2011.-B. 71-73.



hayotiga zarbulmasal qilingan (qo'shilgan) dunyo hayoti. Zero, yolg'onchi dunyo insonni aldash, unga o'zini chiroyli ko'rsatish bilan firib beradi, to'g'ri yo'ldan chalg'itadi. Ammo Mashrab singari murshid va komil shaxslar bunday firib beruvchi dunyo ma'nosini anglagan insonlardir. Professor Ziyo ham shu silsilaning bir bo'lagi sifatida shunday maqomga aloqador. Shu bois unga yaqinlashib kelayotgan bo'ron dahshati, o'lim vahimasi boshqalarda bo'lganidek qo'rqinchli emas. Kiritma matndan kelib chiqadigan mana shunday ma'rifiy ma'no uni professor Ziyo orqali roman kompozitsiyasi va falsafiy mazmuniga dahldor qiladi.

Roman kompozitsiyasining "Xotima" qismi bor-yo'g'i besh jumladan iborat. Ammo o'zining chuqur falsafiy mazmuni bilan romanning "Ibtido" deb nomlangan muqaddimasiga bog'lanadi. Mazmuniy qolip hosil qilib, romanning kompozitsion butunligini ta'minlaydi. "Ibtido"dagi "...Jaziraning top-toza, moviy osmonida bir parcha oq bulut suzmoqda edi"⁷⁹ tarzida berilgan badiiy axborot tasvir ochqichi "Xotima"ning so'nggi jumlasini: "Va unga "Boqiy darbadar" deb nom berdilar" degan yopuvchi jumla bilan yakunlanadi. Ikki mustaqil kompozitsion bo'lakdagi "oq bulut" va "Boqiy darbadar" birikmalari romanning umumiy g'oyasi ezgulik va yovuzlik kurashidan iborat inson hayoti haqidagi falsafiy xulosani zidlash asosida tasdiqlaydi. Yozuvchining Haq yo'li, ezgulik yo'li hamisha g'olib degan umuminsoniy xulosasiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – Toshkent: G'. G'ulom. 2011. –B.260.
2. Rasulov A. Akslar falsafasi. // Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2017 yil, 33-bet.
3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" nashriyoti. 2010.-B. 230..
4. Kristofer Fort. Isajon Sulton va postmodernizm. /Isajon Sulton nasri badiiyati. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. 2017.-B. 350.
5. Z.Pardayeva. O'zbek romani poetikasi (Hozirgi o'zbek romanlarining tahlili misolida). Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2003 yil. 9-bet.
6. To'xta Boboyev. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "O'qituvchi". 2002 yil 217-bet

⁷⁹Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – Toshkent: G'. G'ulom. 2011. –B. 5.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

